



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2023 - yil 15 - fevral

25-8-0-F/23

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonunining ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha quyidagi tarkibda:

viloyat hokimligini saqlash xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq;

viloyat hokimligi huzuridagi “Harbiy-ma‘muriy sektorlarni rivojlantirish jamg‘armasi” mablag‘lari bo‘yicha 2-ilovaga muvofiq;

viloyat hokimligi huzuridagi “Mehr daftari” jamg‘armasi” mablag‘lari bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq;

viloyat hokimligi hisobidan o‘tkaziladigan tadbirlar va boshqa maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha 4-ilovaga muvofiq tanlov komissiyalari tuzilsin.

2. Viloyat hokimligi huzuridagi “Yoshlar daftari” jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan tovar (ish, xizmat)lar xarid qilish bo‘yicha talov o‘tkazish Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasiga yuklatilsin.

3. Tanlov komissiyalariga tovar (ish, xizmatlar) xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni talablariga qat‘iy amal qilinishini va tegishli hujjatlarni tayyorlashni ta‘minlash yuklatilsin.

4. Tanlovda komissiyalar a‘zolarining yarmidan ortiq qismi qatnashgan holda

tanlov o‘tkazishga ruxsat etilishi belgilansin.

5. Qiymati eng kam bazaviy hisoblash miqdorining 2 500 baravaridan oshgan xaridlar bo‘yicha barcha komissiyalar tarkibiga viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kiritilsin.

6. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (I.Ummatov)ga viloyat hokimligi tomonidan xarid qilinadigan tovar (ish, xizmatlar) uchun tanlov komissiyalarining qaroriga va taqdim etilgan hujjatlariga asosan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha belgilangan tartibda to‘lovlar amalga oshirib borilishini ta’minlash yuklatilsin.

7. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi
vazifasini bajaruvchi**



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 15 fevraldagi
25-8-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

**Viloyat hokimligi ehtiyoji uchun tovar (ish, xizmat)lar xarid qilish bo'yicha
davlat xaridlari tanlov komissiyasi**

TARKIBI

№	Komissiya a'zolari	Lavozimi	Komissiyadagi vazifasi
1.	I.Ummatov	- Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi boshlig'i	- Komissiya raisi
2.	Q.Soatov	- Xo'jalik mudiri	- Komissiya raisi o'rinbosari
3.	N.Ravshanov	- Avtogaraj mudiri	- Komissiya a'zosi
4.	Sh.Sattorov	- Kompyuter texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha injiner	- Komissiya a'zosi
5.	Z.Avazov	- Referent kotib	- Komissiya a'zosi
6.	A.Raxmatov	- Elektromexanik	- Komissiya a'zosi
7.	T.Isayev	- Hisobchi-g'aznachi	- Komissiya a'zosi
8.	O.Mengliqulova	- Hisob yurituvchi	- Komissiya a'zosi
9.	A.To'xtayev	- Xalq qabulxonasi xo'jalik mudiri	- Komissiya a'zosi

Izoh: Komissiya tarkibidagi xodimlar ishdan bo'shagan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan xodimlar komissiya tarkibiga kiritiladi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 15 fevraldagi
25-8-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

**Viloyat hokimligi huzuridagi “Harbiy-ma’muriy sektorlarni rivojlantirish
jamg’armasi” mablag’lari hisobidan tovar (ish, xizmat)lar xarid**

qilish bo‘yicha davlat xaridlari tanlov komissiyasi

TARKIBI

№	Komissiya a’zolari	Lavozimi	Komissiyadagi vazifasi
1.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari	- Komissiya raisi
2.	Lavozimi bo‘yicha	- Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruh rahbari	- Komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Lavozimi bo‘yicha	- Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruh bosh mutaxassisi	- Komissiya a’zosi
4.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimligi xo‘jalik mudiri	- Komissiya a’zosi
5.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari kotibiyati mudiri	- Komissiya a’zosi

Izoh: Komissiya tarkibidagi xodimlar ishdan bo‘shagan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan xodimlar komissiya tarkibiga kiritiladi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 15 fevraldagi
25-8-0-F/23-son farmoyishiga
3-ilova

**Viloyat hokimligi huzuridagi “Mehr daftari” jamg‘armasi” mablag‘lari
hisobidan tovar (ish, xizmat)lar xarid qilish bo‘yicha**

davlat xaridlari tanlov komissiyasi

TARKIBI

№	Komissiya a‘zolari	Lavozimi	Komissiyadagi vazifasi
1.	I.Saparov	- Viloyat hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	- Komissiya raisi
2.	Sh.Ibragimova	- Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati mudiri	- Komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Sh.Ibragimov	- Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar majmuasi bosh mutaxassisi	- Komissiya a’zosi
4.	B.Abdullayev	- Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar majmuasi yetakchi mutaxassisi	- Komissiya a’zosi
5.	L.Baratova	- Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati bosh mutaxassisi	- Komissiya a’zosi

Izoh: Komissiya tarkibidagi xodimlar ishdan bo‘shagan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan xodimlar komissiya tarkibiga kiritiladi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 15 fevraldagi
25-8-0-F/23-son farmoyishiga
4-ilova

Viloyat hokimligi hisobidan o‘tkaziladigan tadbirlar va boshqa maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan tovar (ish, xizmat)lar xarid qilish bo‘yicha davlat xaridlari tanlov komissiyasi

TARKIBI

№	Komissiya a‘zolari	Lavozimi	Komissiyadagi vazifasi
1.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimining tegishli tarmoq bo‘yicha o‘rinbosari	- Komissiya raisi
2.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimining tegishli tarmoq bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati mudiri	- Komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimining tegishli tarmoq bo‘yicha o‘rinbosari bosh mutaxassisi	- Komissiya a‘zosi
4.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimligi xo‘jalik mudiri	- Komissiya a‘zosi
5.	Lavozimi bo‘yicha	- Viloyat hokimligi hisobchisi	- Komissiya a‘zosi

Izoh: Komissiya tarkibidagi xodimlar ishdan bo‘shagan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan xodimlar komissiya tarkibiga kiritiladi.